



BO‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT O‘QITUVCHISIDA MA’NAVIY-AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Ismoilov Yo.Q.

*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
mustaqil tadqiqotchisi*

Tayanch so‘zlar: modernizatsiyalash, ma’naviy-axloqiy tarbiya, kasbiy kompetensiya, konsepsiya, talablar, qadriyat.

Ключевые слова: модернизация, духовно-нравственное воспитание, профессиональная компетентность, концепция, требования, ценность.

Key words: modernization, spiritual and moral education, professional competence, constitution, requirements, value.

Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilari - pedagog talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash borasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni modernizatsiyalash ushbu tizimda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari, musobaqalari, ta’lim jarayoni va madaniy-ma’rifiy tadbirlar integratsiyasini talab qiladi. Zero “yuksak ma’naviyatli talaba bu - ma’rifatli shaxs, ya’ni kuchli milliy o‘zlikka ega, o‘ziga yuklatilgan har qanday vazifaga mas’uliyat bilan yondashadigan, nafaqat o‘z taqdiri, balki boshqalarning taqdirini ham o‘ylaydigan, o‘z xalqining kelajagi uchun mas’ul, shuningdek, o‘zining milliy ma’naviyatidan kelib, umuminsoniy qadriyatlar bilan birga boshqa xalqlarning madaniyatini ham chuqur hurmat qiladigan shaxsdir. Ayni xususiyatlar yuksak ma’naviy-axloqli shaxsni tarbiyalashda yetakchi yo‘nalishlarni: Vatanga sadoqat, mas’uliyat, bag‘rikenglik, mehnatsevarlik, mehr-oqibatlilik, huquqiy madaniyat, irodalilik, innovasion fikrlashni belgilaydi” [1].

Bu esa jamiyatda jinoyatchilik, ekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, radikalizm, ko‘zbo‘yamachilik, yolg‘onchilik, egosentrizm, axloqiy buzuqlik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatning kamayishi, «ommaviy madaniyat»ga ko‘r-ko‘rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, o‘zibo‘larchilik, farzand tarbiyasida mas’uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik kabi



illatlar paydo bo'lishining oldini oladi. Talaba yoshlarning hayotda o'z o'rini topishga, kelajakka bo'lgan ishonchi yanada oshadi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasida belgilangan Vatanga sadoqat fazilati sportchi talaba uchun O'zbekistonning hozirgi hayoti va kelajagi uchun farzand sifatida javobgarlik hissini, o'z Vatani bilan g'ururlanishni ta'minlaydigan ijtimoiy-ma'naviy muhit, makon yaratilgandagina samarali shakllanadi. Buning uchun o'quv va sport jamoalarida o'zaro munosabatlarning ma'naviy-axloqiy asoslarini, o'zaro ishonchni, o'z-o'zini hurmat qilishni va boshqalarning qadr-qimmatini va huquqlarini hurmat qilishni ta'minlaydigan ma'naviy-axloqiy muhit yaratilishi lozim.

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilari ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ham obyekti, ham subyekti hisoblanishadi. Chunki birinchidan, obyekt sifatida oliy ta'lim muassasasi tomonidan ularda Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi asosida Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovasion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muayyan ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish vazifasi yuklatilgan.

Subyekt sifatidagi xususiyati esa ularga o'z kasbiy faoliyatida Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasining uchinchi bosqichida umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'quvchilarida yuqoridagi tayanch ma'naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)larni tarbiyalashga tayyorlash vazifasi yuklatilgan. Qolaversa, "Tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak", degan umume'tirof etilgan prinsip aynan manashu nuqtada o'z joriylashuvini taqozo qiladi. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarni tayyorlashga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlarni o'rganish davomida, 60112200 – "Jismoniy madaniyat" bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari o'rganildi. Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Jismoniy madaniyat ta'limi bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2022 yil 29 avgustdagi 5 sonli yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 9 sentyabrdagi 302 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan joriy etilgan.

60112200 – "Jismoniy madaniyat" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar ikki qismdan – umumiy va kasbiy kompetensiyalardan iborat. 6 ta umumiy kompetensiyalardan birinchisi "Davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi" [2]. Sifatida belgilangan.



Ushbu kompetensiya bevosita ma'naviy-axloqiy tarbiya vazifalariga kirishi sababli unga alohida e'tibor qaratish taqozo qilinadi.

Malaka talablariga ko'ra bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda:

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olish, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish;

o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikasiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirishlarini olib borish;

mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish;

milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarini ochib berish qobiliyatlariga ega bo'lishi talab etiladi [3]. Ushbu malaka talablariga asoslanish birinchidan, O'zbekiston Qonunida belgilangan ta'lim va tarbiya birligi prinsipini ta'minlashga, ikkinchidan, bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisiga ma'naviy-axloqiy tarbiyaning obyekti va subyekti sifatida yondoshuvning qonuniy asoslarini belgilab berdi.

UMTKning 64 bandida "Uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi samaradorligini oshirish va takomillashtirishga qaratilgan dissertasiyalar, ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarni yo'lga qo'yish vazifasi yuklatilgan [4]. Bu bejiz emas, zero ushbu Konsepsiyaning chuqur ilmiy, texnologik asosda amaliyotga joriy qilinishi natijasida oliy ta'lim muassasalarida mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish layoqatiga ega bo'lgan yoshlarning ma'naviy kamol topishi uchun zarur bo'lgan innovasion ijtimoiy-pedagogik sog'lom va barqaror muhit yaratiladi.

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda UMTK prinsiplari asosida, jumladan, "ta'lim va tarbiya birligi" prinsipi asosida amalga oshiriladi. Bu esa, ularning ixtisoslik bo'yicha malaka talablarida belgilanganidek, ularni mustaqil ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga o'rgatishni, talabalarni milliy g'oyaning maqsad vazifalari, qadriyatlar va ideallari bilan tanishtirish, ularda Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi bilan belgilangan kasbiy ma'naviyat kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat.

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining individual imkoniyatlarini rivojlantirish talaba shaxsiyatini shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish, madaniy hordiq chiqarish faoliyatining asosiy vazifasi bo'lib, nafaqat uning individual xususiyatlarini hisobga olish, balki ularning har jihatdan har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashish lozim. Har bir bo'lajak jismoniy



madaniyat o'qituvchisi o'z imijini topishi kerak. Individuallik, o'ziga xoslik shaxsga ma'naviy-axloqiy prinsiplarning asosiy toifalarida o'zlarining shakllangan pozitsiyalari va dunyoqarashiga ega bo'lish imkonini beradi.

Sportchi talabalarning doim musobaqalar, mashg'ulotlar sharoitida yashashi, rivojlanishi ularda kasbiy maqsadlar, kasbiy ma'naviyat mazmuni, shakllari va usullarini tanlashda subyektiv kuchlarga ega bo'lishiga va uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasida belgilangan tayanch kompetensiyalarni qo'llashni mashq qilishga yordam beradi.

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining individual va jamoaviy faoliyatiularning o'zlariga xos xususiyatlarini va xarakterlaridagi drayver sifatlarni aniqlash hamda rivojlantirishga imkon beradi. Yakka jamoaviy mashg'ulotlar talabalarning qobiliyatlarini ochib beradi, shaxsiyatining kuchli tomonlarini ko'rsatadi. Sport faoliyatining muayyan turida muvaffaqiyatga erishish ularda iroda, mehnatsevarlik fazilatlarini rivojlanlantirishga hissa qo'shadi, o'z-o'zini takomillashtirishni davom ettirishga undaydi.

Bunda fakultet, guruhlardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni insonparvar shaxsga yo'naltirilgan ijtimoiy-madaniy texnologiyalar bilan boyitish muhimdir. Komanda a'zolariga ishonish, o'zini-o'zi anglash va o'zini namoyon qilishga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash – ortiqcha talabchanlik va haddan tashqari nazorat o'rnini egallashi lozim. Nafaqat tashqi ta'sirlar, balki ichki motivasiya ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantiradi. Shuning uchun ham individual yondashish talabalarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida tayanch ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish obyektiv va subyektiv omillarning birligida namoyon bo'ladi: obyektiv – jamiyatning shaxsga qo'yadigan milliy g'oyaviy talablari va subyektiv – ya'ni shaxsning milliy g'oyaviy qadriyat, fazilatlariga, jamiyat, ma'naviy va moddiy qadriyatlarga bo'lgan munosabatida. Samarali tashkil qilingan ma'naviy-ma'rifiy ishlar, g'oyaviy tarbiyaning eng muhim vazifasi, obyektiv g'oyaviy talablarni shaxs xulq-atvorining subyektiv normasiga aylantirish, ya'ni g'oyaviy tarbiyaning obyektiv va subyektiv prinsiplari amalda birlashtiriladi.

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etishi, ularning ma'naviy-ma'rifiy bilim olishga intilishlari ma'naviy ehtiyojlarning o'sishini rag'batlantiradi. Bu faoliyat daxldorlikni rivojlantirib, Vatan, milliy manfaatlar yo'lida birlashishga, harakat qilishga, o'zidagi ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishga, ideallarga ega bo'lishga,



jamoat vazifalarini bajarishda do‘stona, o‘zaro yordam uchun mas’uliyatni shakllantiradi.

Adabiyotlar:

1. Қодиров Қ. Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида олий таълим муассасалари ғоявий тарбия тизимини модернизациялаш. Педагогика фанлари доктори (DcS) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Чирчик, 2021. 93 б.
2. 60112200– “Жисмоний маданият” бакалавриат таълим йўналишининг малака талаблари. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги хузуридаги ўқув-услубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиқлаштирувчи Кенгашнинг 2022 йил 29 августдаги 5 сонли йиғилишида тасдиқланган, Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2022 йил 9 сентябрдаги 302 сонли буйруғи билан тасдиқланган. 7 бет.
3. 60112200– “Жисмоний маданият” бакалавриат таълим йўналишининг малака талаблари. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги хузуридаги ўқув-услубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиқлаштирувчи Кенгашнинг 2022 йил 29 августдаги 5 сонли йиғилишида тасдиқланган, Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2022 йил 9 сентябрдаги 302 сонли буйруғи билан тасдиқланган. Тошкент, 2022. 6 бет.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Узлуксиз маънавий тарбия Концепциясини тасдиқлаш ва амалиётга жорий қилиш тўғрисида”ги 2019 йил 31 декабрдаги 1059-сон қарорига1-илова.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada jismoniy madaniyat o‘qituvchilarning kasbiy fazilatlarini va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarning izchilligi haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описаны профессиональные качества учителей физической культуры и системность взаимоотношений, возникающих в процессе обучения.

SUMMARY

This article describes the professional qualities of physical culture teachers and the consistency of relationships that arise in the process of education.